

Yagonadir Vatanim mening!



lug'at



Vatan arabcha so'z bo'lib, *tug'ilgan makon* degan ma'noni anglatadi. Bizning Vatanimiz – mustaqil O'zbekiston.



1-topshiriq. Matnni o'qing. Mazmunini so'zlab bering.

Vatan – biz tug'ilib o'sgan joy, shahrimiz, qishlog'imiz, yashab turgan go'zal makonimiz. Har bir odam o'zi tug'ilib o'sgan yerini jonidan ortiq sevishi kerak. Vatan – go'zal tabiatimiz, mahallamiz, ko'chalarimiz, uyimiz.

Inson uchun havo, quyosh, suv, non, ota-ona qanchalik aziz va muqaddas bo'lsa, Vatan ham shunchalik mo'tabardir.

Vatan – ona kabi yagona. Yagonaligi bilan muqaddas va mukarram. Mukarramligi bilan esa bebaho va beqiyosdir. Uni asrab-avaylash har birimizning burchimizdir.



Vatan – kindik qonimiz to'kilgan tuproq.

Vatan – beshigimiz, ko'chamiz, mahallamiz, uyimiz, turar joyimiz.

Vatan – muqaddas ona tilimiz.

Vatan – ona tabiat in'om etgan barcha boyliklar, noz-u ne'matlar.



1-mashq. Rasm asosida matn tuzing.

Foydalanish uchun soʻzlar: davlat, daryo, qadimiy, obod, bogʻlar, chiroyli, keng, zamonaviy.



2-mashq. Rasmlarni soʻz bilan ifodalab, gaplarni koʻchiring.

Bizning Vatanimiz katta va chiroyli. Vatanimiz oʻzining  lari bilan goʻzal. Yurtimizda baland  lar, tiniq  lar bor.  ,  ,  ,  kabi foydali qazilmalar ham koʻp. Serquyosh oʻlkamizda  lar,  lar ham yetishtiriladi. Biz Vatanimiz bilan faxrlanamiz.



3-mashq. Maqollarni oʻqing. Ona tilingizga tarjima qilib yozing.



Bulbul chamanni sevar,
Odam – Vatanni.



Vatani borning baxti bor,
Mehnati borning – taxti.



Vatansiz inson – kuysiz bulbul.



4-mashq. Nuqtalar o'rniga mos so'zlarni qo'yib, gaplarni ko'chiring.

Vatanim

O'zbekiston go'zal va ... o'lka. Bu yerda ... shaharlar, yam-yashil vodiylar, daryo va ... bor. Vatanimiz sarhadlarida ... gaz, oltin, neft, ko'mir qazib olinadi. Paxta, bug'doy, ... va sabzavotlar yetishtiriladi. Avtomobil va ... zavodlari qurilgan.

Biz o'z yurtimizni sevamiz.

Foydalanish uchun so'zlar: ko'llar, bepoyon, yer ostidan, texnika, meva, zamonaviy.



2-topshiriq. She'rni ifodali o'qing.

Vatan

Farid Usmon

Vatan – bizning uyimiz,
Vatan – bizning ko'chamiz,
Soylardagi suvimiz,
Maza qilib ichamiz.

Vatan – bizning tog'imiz,
Olma, anor bog'imiz,

Bug'doy, arpa dalamiz,
O'ynab maza qilamiz.

Oltin to'la konimiz,
Tandir to'la nonimiz.
Vatan – maktab-onamiz,
O'qishni o'rganamiz.

O'zbekiston – Vatan haqida qo'shiq.



1



“Mening Vatanim” mavzusida kichik matn tuzing.
Lug'atdagi so'zlarni yodlang.

